

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Norqizilova Mavjuda Aliyevna

Koson tumani 44-umumiy o'rta ta'lim psixologi

Annotatsiya: Maqolada kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlani va xulq-atvor xususiyatlari to'g'risida so'z yuritiladi. Bolani erta o'qish, yozish, sanashga o'rgatib uning bilish jarayonlari zo'riqtirilsa, bolaning emotsional hissiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan miya quvvatining tanqislashuviga sabab bo'ladi. Bundan bolalarning emotsional hissiy jarayonlarining kechishida yoki jismoniy rivojlanishida kamchiliklar sodir bo'ladi.

Kalit so'zlar: erta o'qish, yozish, sanash, bilish jarayonlari, bolaning emotsional hissiy rivojlanishi, miya quvvati, jismoniy rivojlanish, miya strukturasi, nerv psixik jarayonlari, ko'ruv harakat koordinatsiyasi, kichik motorikaning rivojlanmaganligi.

KIRISH

Kichik maktab yoshidagi bolalar tez chalg'iydilar, uzoq vaqt diqqatlarini bir narsaga qarata olmaydilar, ta'sirchan hamda emotsional bo'ladilar. Bolaning ijtimoiy munosabatlar tizimi va faoliyatidagi kardinal o'zgarishlar uning organizmidagi barcha tizimlar va funksiyalaridagi o'zgarishlarga to'g'ri kelib, boladan kuchli zo'riqish va o'z ichki imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zaruriyatini taqozo etadi. Ushbu yoshdagi o'zgarishlar salbiy oqibatlarni olib kelmay, aksincha uning yangi sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi.

O'qituvchining munosabat uslubi o'quvchining faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kichik maktab Yoshidagi o'quvchi faolligining asosan uch xil ko'rinishi mavjud bo'lib, bular: jismoniy, psixik va ijtimoiy faollikdir.

Bu yoshdagi bolalar nihoyatda serharakat bo'ladilar. Bu jismoniy harakat bolaning atrofdagi narsalarga qiziqish bilan qarayotganligi, ularni o'rganishga intilayotgani bilan ham bog'liqdir. Bolaning jismoniy va psixik faolligi o'zaro bog'liqdir. chunki, psixik sog'lom bola harakatchan bo'ladi, charchagan, siqilgan bola esa deyarli hech narsa bilan qiziqmaydi.

Maktabga birinchi bor kelgan bolada qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ularning, avvalo, bir qancha maktab qoidalariga bo'ysunishi qiyin kechadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun eng qiyin qoida bu dars vaqtida jim o'tirishdir. O'qituvchilar o'quvchilarning doimo jim o'tirishlariga harakat qilishadi, lekin kamharakatli, passiv, quvvati kam bo'lgan o'quvchigina dars jarayonida uzoq vaqt jim o'tira oladi.

Birinchi bor maktabga kelgan bola hali o'zini to'liq anglashi va o'z xatti-harakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o'qituvchigina bolaga me'yorlar qo'yishi,

ularning xatti-harakatlarini baholashi, o'z xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi talablar va shartlarni qabul qiladilar, Shuningdek ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat qiladilar.

Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligida insoniy an'analar asosida harakat qilishga o'rganadi, o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola xulq-atvorining rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Kichik maktab davri bu anglanilgan va ixtiyoriy xatti-harakatlarga o'tish davridir. Bola faol ravishda o'zini o'zi boshqarishga, qo'yilgan maqsadlarga ko'ra o'zining faoliyatini tashkil etishga o'rganish davridir. Kichik maktab davrida xattiharakatlarning yangi shakllarini paydo bo'lishi bevosita o'quv faoliyati bilan bog'liqdir. Hech bir o'qituvchi maktabga birinchi bor kelgan boladan o'zi o'rgatmagan arifmetik misol va masalalarni echishni talab etmaydi, lekin afsuski, juda ko'p o'qituvchilar ulardan qunt bilan o'qishni, uyushqoqlikni, ma'suliyatlilikni, tartibga aniq rioya etishni talab etadilar. Vaholanki, ushbu ko'nikmalar o'qituvchi tomonidan ma'lum odat va malakalarga o'rgatilinganidan so'nggina paydo bo'ladi.

Ixtiyoriy ravishda harakat qilish layoqati butun kichik maktab davri davomida shakllanadi. Psixik faoliyatning oliy shakli singari ixtiyoriy xattiharakatlar ularning shakllanishini asosiy qonuniga bo'ysunadi. Unga ko'ra yangi xatti-harakatlar avvalo kattalar bilan bo'lgan umumiy faoliyatda yuzaga kelib, bola shunday xatti-harakatlarni tashkil etish imkoniyatlarini o'rganadi va shundan keyingina u bolaning individual xatti-harakat usuliga aylanadi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash borasida yaxshi o'qish, o'ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug'ullanish qoidalariga o'rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi bir o'rinni egallaydi. Kichik maktab davri bu ijobiy o'zgarishlar va yangilanishlar davridir. Shuning uchun ham rivojlanishning shu bosqichida har bir bola erishgan muvaffaqiyatlar darajasi nihoyatda muhim hisoblanadi. Agar shu yoshda bola bilish, o'rganish quvonchini his etmasa, o'qish malakalarini egallay olmasa, do'stlashishni bilmasa, o'ziga nisbatan, o'z imkoniyat va layoqatlariga nisbatan ishonchli bo'la olmasa, bu ishlarni kelgusida amalga oshirish qiyinroq bo'lib, boladan yuqori ruhiy va jismoniy zo'riqishni talab etadi.

Bu davrga kelib bola atrofida gilar bilan o'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xohlayotgan narsalarni hamda, o'z sinfi va oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. Bolaning taqlidchanligi ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'lishi mumkin. Ixtiyorsiz taqlidchanlik ustoz va sinfdoshlarining xatti-harakatlarini o'zlashtirishga olib keladi. Bunda xatti-harakatlarni anglamagan ravishda egallaydi. Shuni hamisha yodda saqlash lozimki, bola ixtiyorsiz ravishda nafaqat chiroyli va

kerakli narsalarga balki turli salbiy ko‘rinish va holatlarga ham taqlid qilishi mumkin. Ixtiyoriy taqlidchanlik irodaviy zo‘riqishni talab etadi. Bunday vaziyatlarda bola maqsadga yo‘naltirilgan ravishda u – yoki bu xatti-harakatni amalga oshiradi, bu xatti-harakatlarini qoida, namuna etalonga moslashtirishga intiladi. O‘qituvchi boladagi ixtiyoriy taqlidchanlik xususiyati orqali ularda samarali ijtimoiy odat va hislatlarni rivojlantirishi mumkin. Har qanday xatti-harakat va faoliyatda o‘qituvchi bolani baholaydi, o‘quvchi shu baholash asosida esa o‘z-o‘zini baholashga o‘rganib boradi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o‘ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o‘z mohiyatiga ko‘ra faqat muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki o‘quvchilik istagini aks ettirishdan ham iboratdir. Shu ehtiyojlar asosida bolaning o‘z portfeliga, shaxsiy o‘quv qurollariga, dars tayyorlash stoliga, kitob qo‘yish javoniga ega bo‘lish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi. Ana shu ehtiyoj bola shaxsining shakllanishida, Shuningdek uning ijtimoiylashuvida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Afsuski, o‘qish davomida aqliy-ruhiy zo‘riqish oqibatida turli xil kasalliklarga chalilib, jismoniy va psixik rivojlanishda nuqsonlar paydo bo‘ladi. Bunday bolalarda eng avvalo miya strukturasining va nerv psixik jarayonlarining maktabda o‘qish uchun to‘liq etishmaganligi, ko‘ruv harakat koordinatsiyasi va kichik motorikaning rivojlanmaganligi, mantiqiy fikr mahsuldorligining pastligi kuzatiladi. Undan tashqari motivatsiya, irodaviy jihatlarining ayniqsa, ixtiyoriy diqqat va xotiraning shakllanmaganligi, xatti-harakatlarni ixtiyoriy boshqaruvdagi muammolar, bir so‘z bilan aytganda hali “O‘quvchi ichki pozitsiya”sining shakllanmaganligi maktabda o‘qishga tayyor bo‘lmagan bolalarning muqaffaqiyatli o‘zlashtirib ketishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Pedagoglar, ota-onalar, bolalarni erta maktabga berishning foyda yoki zarari to‘g‘risida o‘ylaganlarida inson miyasi rivojlanishining neyrofiziologik qonuniyatlarini ham alohida e’tiborga olishlari lozim. Bolani erta o‘qish, yozish, sanashga o‘rgatib uning bilish jarayonlari zo‘riqtirilsa, bolaning emotsional hissiy rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan miya quvvatining tanqislashuviga sabab bo‘ladi. Bundan bolalarning emotsional hissiy jarayonlarining kechishida yoki jismoniy rivojlanishida kamchiliklar sodir bo‘ladi.

Ma’lumki, rivojlanish qonuniyatiga ko‘ra, har qanday taraqqiyot ko‘rgazmali obrazlilikdan abstrakt mantiqiylikka qarab boradi. Agar bola xali o‘qishga aqliy, ma’naviy-ruhiy jihatdan tayyor bo‘lmay turib, unga harf va raqamlarni yozish, o‘qish o‘rgatilsa psixik rivojlanishning teskari tomonga ketishiga sabab bo‘ladi. Psixolog olimlarning fikricha, psixik va evolyusiya taraqqiyot qonunlari ham fizik qonunlardek buzilmas, hamda universaldir. Bolaning ijtimoiy munosabatlar tizimi va faoliyatidagi kardinal o‘zgarishlar uning organizmidagi barcha tizimlar va funksiyalaridagi o‘zgarishlarga to‘g‘ri kelib boladan kuchli zo‘riqish va o‘z ichki imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish zaruriyatini taqazo etadi. Maktabga tayyor bo‘lgan boladagi ushbu

o'zgarishlar salbiy oqibatlarni olib kelmay, aksincha uning yangi sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi. O'qituvchining munosabat uslubi o'quvchining faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Yuqorida ko'rsatib o'tilganlar kichik maktab davridagi o'quvchilarning motivatsion sohasi o'zgarib borishini, maktabgacha davrda bo'lgan umumiy bilish va motivlarning ijtimoiy yo'nalganligi aniqlashib, "o'quvchi mavqei"ni egallashiga, ya'ni maktabga borishga intilish, bu pozitsiya qondirilganidan so'ng esa yangi munosabatlarning – o'quv motivlari va bir qadar murakkab shaklda bo'lgan ijtimoiy motivlarning yuzaga kelishidan dalolat beradi. Kichik maktab davrining oxirlariga kelib o'quvchilarda o'quv-bilish motivlari, ya'ni faqat yangi bilimlarnigina emas, hatto umumiy qonuniyatlarni emas, balki yangi bilimlarni topishning aynan biron bir yo'llarini egallashga qiziqish shakllantirilgan bo'lishi lozim. Ushbu motivlarning shakllantirilishi kichik maktab yoshidagi bolalarning o'rta maktabga tayyorgarligining zaruriy jihati hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Каршибаева, Г. А. Теоретическая основа проблемы психологических особенностей подростков с суицидальным поведением. Молодой ученый, (49), 230-233.
2. Каршибаева, Г. А., Норбекова, Б. Ш., & Туракулов, Л. Т. Суицид-это не просто способ обратить на себя внимание. European journal of education and applied psychology, (2).
3. Каршибаева, Г. А. Самоубийство в ряду других социальных явлений. Молодой ученый, (5), 581-584.
4. Karshiboeva, G. Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением. EurasianUnionScientists, 1(10 (79), 48-49.
5. Karshibayeva, G. Diagnostics and Preventive Measures against the Suicidal Behavior of Teenagers. YOUNG SCIENTIST USA.
6. Каршибаева, Г. А., Б. У. Расулов, Д. Р. Расулова, О. Э. Эшмуратов. Психологическая диагностика личностных и эмоциональных аспектов суицидального поведения подростка : непосредственный // Образование и воспитание. — 2018. — № 2 (17).
7. Majidov, J. B., Sobirov, A. B., Karshiboeva, D. B., & Mamarayimova, R. U. (2022). Factors Of Formation Of The Scientific Worldview Of The Person And Their Interrelation. *PORTA LINGUARUM*, 37, 65-70.